

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Farg'ona shahrining geokimyoviy landshaftlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari	117
Sh.Q.Yuldasheva	
Aqliy mehnat paytida qondagi qand miqdorini turli yoshdagi odamlarda o'zgarishi.....	122
Z.A.Jabbarov, G.R.Atoyeva, M.H.Husniddinova	
Tuproqlarning kimyoviy ifloslanish natijasida biologik xossalarning o'zgarishi	127
X.X.Dolimov, I.J.Jalolov, A.A.Ibragimov	
<i>Cynara scolymus</i> L. O'simligidan ajratib olingan endofit zamburug'lar ekstraktlarining saraton hujayralariga qarshi biologik faolliklari	133
S.Israyiljanov, J.T.Mamasaidov, H.O.Adulboqiyeva	
Og'ir metallarning o'simlik, hayvonlar va odam organizmiga fiziologik ta'sirini o'rganishga oid ilmiy tadqiqotlar tahlili	138
M.K.Juliyev, L.A.Gafurova, M.D.Xolmurodova, B.E.Abdikairov	
Markaziy Osiyoda tuproq eroziyasi bo'yicha 1993-2022-yillar oralig'ida Scopus ma'lumotlar bazasida nashr etilgan maqolalar tahlili	143
X.X.Dolimov, I.J.Jalolov, A.A.Ibragimov	
Analysis of macro and micro elements and water-soluble vitamins of the plant <i>Cynara scolymus</i> L.....	149
S.O.Madumarova, M.Sh.Raximov, M.J.Madumarov, A.A.Tokoev	
Farg'ona vodiysi Cladocera (<i>Crustacea: Branchiopoda</i>) lari ro'yxati.....	157
Z.A.Jabbarov, T.Abdrahmanov, O.N.Imomov, J.J.Abdukarimov	
Tuproq sifati indikatorlari va ularni qo'llanilishi.....	166
M.A.Tog'ayeva, Sh.A.Samatova	
Qashqadaryo viloyati aholisi iste'mol qilayotgan yumshoq bug'doy navlari tarkibidagi temir elementi miqdori.....	176
M.A.Davidov	
Tabiiy sharoitda <i>Mogoltavia sewerzowii</i> (<i>Regel</i>) korovin antekologik xususiyatlari	181
X.N.Raximov, G.T.Djalilova	
Qo'llanilgan mineral va organik o'g'it me'yorlarini tuproqlarni agrokimyoviy xossalari ta'siri	186
<hr/>	
M.R.Qoriyev	
Global iqlim isishi sharoitida mevali daraxtlar vegetatsiyasidagi o'zgarishlar	191
O.N.Nasirov	
Mustaqillikni dastlabki davrida O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlarni shakllanishi	196
R.A.Ikromov	
Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda milliy qadriyatlarning roli.....	200
S.Nishonova	
Maqollar paremiologik birlik sifatida	205
Sh.A.Tadjibaeva	
Rahbar ayol imidji tushunchasi va uni shakllantirishning psixologik xususiyatlari	208
S.S.Jabborova	
Yangi O'zbekistonda barpo etishda ma'naviy salohiyatdan foydalanish istiqbollari.....	213
E.U.Gulzoda, A.Z.Rashidov	
Ijodiy faoliyat uchun, o'quv mashg'ulotlarining o'ziga xos uslubiy chizmasiga egaligi, ijodkorlarning eksperimental ishiga katalizator bo'lib xizmat qilishi omillari.....	219
K.M.Nilufar	
Turli tarixiy kontekstlarda intellektual madaniyat masalasi.....	222
T.Quyliyev	
Global ekologik muammolar va ularning oldini olishda xalqaro institutlarning roli	227
B.M.Qandov	
Jamiyat barqarorligini ta'minlashda sog'lom mafkuralarning roli	233
Z.A.Akbarova, G.M.Nosirova	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning kognitiv rivojlanishiga bilingvizmning ta'siri	238
F.F.Muydinov	
Tibbiy ta'limda mediata'lim asosida o'quv mashg'ulotlarini samarali tashkil etishning ayrim jihatlari.....	242
Z.S.Paziljanova	



MAQOLLAR PAREMIOLOGIK BIRLIK SIFATIDA
ПОСЛОВИЦЫ КАК ПАРЕМИОЛОГИЧЕСКАЯ ЕДИНИЦА
PROVERBS AS A PAREMIOLOGICAL UNIT

Nishonova Sayyoraxon

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, xorijiy tillar fakulteti, ingliz tili nazariyasi va uni o'qitish metodikasi kafedrasini o'qituvchisi, Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya

Mazkur maqolada paremiyalar lingvomadaniy birlik sifatida tilshunoslikda keng o'rganilganligi, paremiyalar har bir xalqning madaniy qiyofasini, milliy o'ziga xosligini lisoniy obrazlar tizimida yorqin ifodalab berishi xususida fikr yuritilgan. Bola komponentli maqollar orqali bolalarga xos xususiyatlar o'zbek xalqining qadriyatlarini bilan uyg'un holda ifodalanganligi misollar orqali tahlilga tortilgan.

Аннотация

В данной статье рассматривается тот факт, что паремии широко изучаются в лингвистике как лингвокультурная единица и ярко выражают культурный образ и национальную самобытность каждого народа в системе языковых образов. На примерах пословиц с компонентом ребенок анализируется тот факт, что детские особенности выражаются в созвучии ценностями узбекского народа.

Abstract

This article examines the fact that proverbs are widely studied in linguistics as a linguocultural unit and clearly express the cultural image and national identity of each nation in the system of linguistic images. Using examples of proverbs with the child component analyzed the fact, that children's characteristics in proverbs are expressed in consonance with the values of the Uzbek people.

Kalit so'zlar: paremiya, maqollar, lingvomadaniy birlik.

Ключевые слова: паремия, пословицы, лингвокультурная единица.

Key words: paroemia, proverbs, linguocultural unit.

KIRISH

Ma'lumki, xalqning qadriyati sanalgan hikmatli so'zlar, maqol va matallar, ya'ni paremiyalar lingvomadaniy birlik sifatida tilshunoslikda keng o'rganilmoqda. Paremiyologiya xalqning madaniy qarashlarini ifodalab, xalqning turmush tarzi, hayoti, kishilarning jamyatga bo'lgan munosabatini, kuzatishlar va tajribalarga suyanish asosida chiqarilgan xulosalarni ifodalovchi ruhiy holati, etik va estetik tuyg'ularini, ijobiy fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan, avloddan avlodga og'zaki formada ko'chib yuruvchi, ixcham va sodda, qisqa va mazmundor mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo'lgan maqol, matal aforizm kabi hikmatli iboralarni – paremalarni o'rganuvchi tilshunoslik sohasi paremiyologiya deyiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

P.U.Bakirov, L.B.Kasyuba, Y.A.Komenskiy, Y.N.Dreyzina, G.L.Permyakov, N.A.Kurchanova, I.N.Koxan, M.A.Seregina, H.Berdiyurov, R.Rasulov, N.Uluqov [1] kabi olimlar mazkur birlikni lingvistik jihatdan tadqiq qildilar. Turli lug'atlarda mazkur atamaga turlicha izoh berilgan. Masalan, M.Fasmerning «Этимологический словарь русского языка» lug'atida paremiya so'zi «Tavrot («Vetxiy Zavet»)dan o'qish uchun tanlab olingan joylar» ma'nosini anglatadi. So'zning etimologiyasi «ramzli hikoya, maqol»[2] ma'nosida berilgan.

«Paremiya» so'zining etimologiyasida pand-nasihat yoki axloqiy vazifani bajaruvchi ramzli rivoyat tarzida izohlanadi. Filologik (lingvistik) atama sifatida hozirgi ma'nosida keyinchalik qo'llana boshlagan[3].

«O'zbek tilining izohli lug'ati»da «*parema*» va «*paremiya*» terminlari *maqol*, *matal*, *aforizm* ma'nolarida ishlatiluvchi sinonimik, ma'nodosh leksema hisoblanishi[4] qayd etilgan.

«Encyclopedia Free Dictionary Online» lug'atida «Paremiologiya (yunoncha παροιμία) *paroimia*, «*maqol*» – maqollarni to'plovchi, o'rganuvchi lingvistikaning bo'limi»[5] deb ko'rsatilgan. Shuningdek, lingvokulturologik jihatdan paremiyaning xalq tili va madaniyati bilan aloqasi; lingvokognitiv – milliy dunyoqarashning konseptual asoslarini ifodalovchi asosiy aqliy tuzilmalarning namoyishi[6], lingvopragmatik – paremiya tarkibining aksiologik va didaktik mohiyati[6] muayyan darajada ochib berilgan. Internet ma'lumotlarida paremiologiya (yun. *paroimia* – hikmatli so'z, zarbulmasal va logos – ta'limot) ma'nosida keladi va unga quyidagi izohlar berilgan:

1) ma'lum bir tildagi avloddan avlodga og'zaki shaklda ko'chib yuruvchi, ixcham va sodda, qisqa va mazmundor, mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo'lgan *maqol*, *matal*, *aforizm* kabi hikmatli iboralarni – paremalarni o'rganadigan *fan* soha;

2) muayyan tilda mavjud bo'lgan *maqol*, *matal*, *aforizm* kabi hikmatli iboralar – *paremalar* tizimidir[6]. Til semiopatik darajasining eng kam birligi sifatida talqin qilgan M.A. Cherkasskiy paremiyaning odatiy foydalanilgan va sentimental (sezuvchanlik) xususiyatini ta'kidlab o'tadi. Ushbu fikr paremiyalarni yaxlitlik, nutqda takrorlanuvchanlik, ifoda rejasining mavjudligi va tarkib rejasini, shakl barqarorligi kabi tavsiflarga ajratadi[6].

Ko'rinadiki, tilshunoslikda paremiologiya stilistika, adabiyotshunoslik va lingvistik tadqiqot usullarini bir nuqtada jamlagani bilan ahamiyatli sanaladi. Aslida ikkilamchi nominatsiya sanalib, vaziyatlar yoki voqelikga baho beruvchi yopiq barqaror birikmalar paremiyalar deyiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Paremiyalar har bir xalqning madaniy qiyofasini, milliy o'ziga xosligini lisoniy obrazlar tizimida yorqin ifodalab beradi. Jumladan, bola komponentli maqollarda, asosan bolalarga xos xususiyatlar o'zbek xalqining qadriyatlari bilan uyg'un holda ifodalanadi. Masalan, *Bola ko'ngli — podsho. Bola — xondan ulug'. Bola o'nga kirsas, otasi songa kirar. Bola — qalbi gul. Bolasiz uyda kir yotmas. Bolali xotin — gul xotin, Bolasiz xotin — tul xotin* kabi ko'p asrlik xalq fikrlari va qarashlari qisqa barqaror hikmat mahsuli bo'lgan maqollarda o'z aksini topgan. Odatda bunday maqollarning semantik-poetik modeli ko'pgina xalqlarning folklorida uchraydigan keng internatsional tiplarda aniqlanadi[7].

Etnosning takrorlanadigan axloqiy meyorlarning avloddan-avlodga o'tishi, muayyan vaziyatlarda maslahat, rag'batlantirish, ishontirish, tanqid qilish holatlari kuzatiladi. *Bolang yomon bo'lsa ham, omon bo'lsin. Bolasiz ko'p bo'lar boy, Bolasiz yo'q — quruq soy* kabi maqollarda rag'batlantirish kuzatilsa, *Bolasiz xotin sumakka to'ymas. Bolasizning moli — uvol, Imonsizning — joni. Bo'y qiz — uchirma qush. Gap unda emas, bug'doyda. Gung bolaning gapini. Kar onasi tushunar* kabi maqollarda esa ajralmas sintaktik va semantik tuzilish tanqid qilish mazmunini ifodalaydi. Bu esa maqollarning integral va differensial belgilarini yuzaga chiqaradi.

Paremalarning aksariyat she'riy shaklga o'xshashi va ularda o'xshatish, *antiteza*, *anafora*, *alliterasiya*, *kinoya*, *piching* kabi bir qancha tasviriy vositalarning qo'llanilishi yuzasidan G.I.Ergasheva taqdidot ishlarini olib brogan[8].

Tadqiqotlarda paremiyalarga xos quyidagi universal xususiyatlar mavjudligi ta'kidlanadi:

a) keng tarqalganlik yoki takrorlanish: aforizmlar, maqollar va matallar singari, nutqda qayd qilish va sintaktik jihatdan bo'linmaydigan til birliklari shaklida qo'llanadi;

b) barqarorlik: barcha paremiyalar asl shaklida ishlatiladi va ularni umumiy matndan osongina ajratish mumkin;

d) kodifikatsiya: maqollar, matallar va aforizmlar tegishli paremiologik lug'atlarda qayd etilgan;

e) obrazlilik: paremiyalar har doim ham aniq ma'noga ega emas, shu sababli bayonni to'g'ri ifodalash maqsadida til birliklarini semantik-kognitiv tahlil qilish zarurati paydo bo'ladi;

f) umumma'nolilik: barcha paremiologik birliklar, ko'p hollarda, didaktik funksiyani bajaradi, insonlarning to'plangan madaniy va tarixiy tajribalarining umumlashmasini anglatadi, voqelik obyektlarining belgilarini jamlaydi, insoniyat rivojlanishi qonuniyatlarini aks ettiruvchi madaniy va tilga oid qadriyatlarni o'z ichiga oladi;

g) semantik yaxlitlik (xabardorlik): dastlabki iborani o'zgartirganda yoki qisqartirganda uning semantik yaxlitligini va tiklanish imkoniyatini saqlab qolish mumkin (ba'zi til birliklarini boshqasiga aylantirishda kuzatiladi)[9].

Quyidagi bolalarga daxldor maqollarda ham *yolg'iz bola* — *boshga balo*. *Yolg'iz bola* — *yovdan yomon*. *Yolg'iz bola yig'loq bo'lar*, *Yolg'iz tuya* — *baqiroq*. *Yolg'iz o'g'il yovdan qattiq*, *Xotini qahnoqdan qattiq* kabi maqollarda keng tarqalganlik, takrorlanish, obrazlilik, umumma'nolilik, semantik yaxlitlik yuzaga chiqadi. Ta'kidlash joizki, madaniy-tarixiy qadriyatlarining ifodalanishi va odamlarning dunyoning ma'lum bir obyektiga munosabati, dunyodagi tilga oid tavsiflarning universal va idioetnik o'ziga xosligi maqollar, matallar va aforizmlarda vodelanadi. Shuningdek, milliy-madaniy qiyofani ifodalovchi, muhim ahamiyatga ega va turli tillardagi so'zlashuvchilar ham yetib borishi oson bo'lganligi bilan e'tiborga molik sanaladi.

XULOSA

Tahlillar va tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, har bir maqol hamda paremiyalarning vujudga kelishida birorta ibratli voqea ro'y bergan va bu voqea o'ta zukko, sinchkov dono ajdodlarimiz vakillari tomonidan qayta-qayta kuzatilishiga va muayyan tajriba hamda xulosaga ega bo'lishga sabab bo'lgan.

Badiiy asarlarda xalqning madaniy qiyofasini ifodalashda paremiyalardan keng foydalaniladi, chunki millat tarixi, madaniyati, urf-odatlarini uning adabiyoti bilan uzviy chambarchas bog'liqdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бакиров П.У. Номинацентрические пословицы в разносистемных языках (на материале русского, узбекского и казахского языков): Филол.ф. д-ри... дисс. – Ташкент, 2007.
2. Uralova O. P. Ingliz va o'zbek tillarida "Oila" bosh leksemali maqollar semantikasi va strukturasi. Filol. fan... falsafa doktori (PhD) dis. – Samarqand, 2021.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. // www.ziyouz.com kutubxonasi.
4. Приходько А.Н. Антиконтент как лингвокультурный феномен: партономическое, стигматическое, эссенциальное // Когниция. Коммуникация. Дискурс. 2012. № 5.
5. Кохан И.Н. Межкультурная прагматика этнических паремий в китайских СМИ на английском языке дисс. ... к. филол. н. – Владивосток, 2020. <https://gomus.info>
6. Черкасский М.А. Опыт построения функциональной модели одной частной семиотической системы (пословицы и афоризмы) // Паремнологический сборник: Пословица. Загадка. (Структура, смысл, текст). М.: Наука, 1978.
7. Кохан И.Н. Межкультурная прагматика этнических паремий в китайских СМИ на английском языке.: дисс. к. филол. н. – Владивосток, 2020.
8. Nosirov A. Fransuz, o'zbek va rus tillaridagi proverbial frazeologizmlarning semantik-stilistik va milliy-madaniy xususiyatlari. Filol.f.dok...diss. avtoref. – Toshkent, UzDJTU 2016.
9. Полчанинова Е.О. Прецедентный афоризм как фразеологическая единица в современном немецком языке // Наука и бизнес: пути развития. 2011. № 6.
10. D Maxamadaliyeva, MX Madaminovna. Gnoseological Substantiation of Cognitive Development Children. International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology 2 (4), 7-11
11. Maxamadaliyeva, Y.D., & Madaminovna, M. H. . (2022). GNOSEOLOGICAL ASPECTS OF RESEARCH OF ISSUES OF TEACHING SCHOOLCHILDREN TO STATEMENT AND SOLVING PROBLEMS. Modern Journal of Social Sciences and Humanities, 4, 35–39. Retrieved from <https://mjssh.academicjournal.io/index.php/mjssh/article/view/65>
12. YD Maxamadaliyeva. USE OF PRESIDENTIAL NAMES IN UZBEK CHILDREN'S TEXTS. Gospodarka i Innowacje. 22, 68-70